

ATROF MUHITNING IFLOSLANISHI VA ATMOSFERADAGI HAVONING BUZILISHI

Orolova Dilnavoz Sodiq qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Raqamli texnologiyalar fakulteti

Axborot tizimlari va texnologiyalari

odilnavoz007@gmail.com

Annotatsiya: *Shahar, qishloq hamda barcha mamlakatlarda global muammoga aylanib borayotgan ekologik muvozanatning buzilishini bartaraf etish uchun olimlar tomonidan turli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ekologiyaga zarar yetkazadigan avtomobillarni keskin kamaytirish va atrof-muhitni toza saqlash g'oyasi ham ilgari surilmoqda. Axlatlarni ochiq joylarga tashlash natijasida atmosfera ifloslanmoqda. Quyoshdan chiqayotgan zararli nurlar yer atmosferasiga yetib borib, ozon qatlamini yemiradi va natijada yirik muzliklarning erishi sodir bo'lmoqda.*

Kalit so'zlar: *ekologiya, CO₂ (karbonat angidrid), atmosfera, ob-havo, ozon qatlami, yer shari, chiqindi, daraxtlar, o'simliklar, mashina, zavod, konlar, tabiiy boyliklar.*

Аннотация: *В городах, сельской местности и во всех странах мира нарушение экологического баланса становится глобальной проблемой, и все учёные ведут активные исследования по её устранению. Также выдвигаются идеи резкого сокращения количества автомобилей, наносящих вред экологии, и сохранения чистоты окружающей среды. В результате выбрасывания мусора в открытых местах происходит загрязнение атмосферы. Вредные лучи, исходящие от Солнца, достигают земной атмосферы, разрушают озоновый слой и в итоге приводят к таянию крупных ледников.*

Ключевые слова: *экология, CO₂ (углекислый газ), атмосфера, погода, озоновый слой, земной шар, отходы, деревья, растения, автомобили, заводы, шахты, природные ресурсы.*

Abstract: *In cities, rural areas, and all countries of the world, the disruption of ecological balance is becoming a global problem, and scientists are conducting extensive research to address it. Ideas such as significantly reducing environmentally harmful vehicles and maintaining a clean environment are also being promoted. As a result of throwing waste in open areas, the atmosphere becomes polluted. Harmful rays emitted by the Sun reach the Earth's atmosphere, damage the ozone layer, and ultimately cause the melting of large glaciers.*

Keywords: *ecology, CO₂ (carbon dioxide), atmosphere, weather, ozone layer, Earth, waste, trees, plants, vehicles, factories, mines, natural resources.*

KIRISH

Zamonaviylashib borayotgan davrda biz insonlar o'zimizga barcha qulayliklarni yaratib olamiz, Qadimgi zamonlarda aravalarda uzoqni yaqin qilish maqsadida foydalangan bo'lsak, kundan-kun insonlarning ongi o'sishi natijasida yangidan yangi ixtirolar yaratilmoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, ot aravalar takomillashib, hozirgi avtomobil ko'rinishiga keldi. Metan, gaz hamda dizelda harakatlanadigan mashinalar havoga jiddiy zarar yetkazmoqda, bu dolzarb mavzu hech kimga sir emas. Mashinalardan chiqayotgan CO₂ (karbonat anhidrid) gazi biz nafas olayotgan havoga tarqalib, butun insoniyat umrini qisqartirmoqda.

Bu muammo yuzasidan bir qator olimlar ushbu masalaga alohida e'tibor qaratmoqda va bu muammoli vaziyatga yechim ham topdi. Tok bilan harakatlanadigan mashinalar yaratildi, elektromobillar bugungi kunda tez su'ratda ommalashib ketdi. Ayni shu ixtiro havoning ifloslanishini biroz bo'lsa ham kamaytirishga hissasini qo'shadi. Chunki gazda yuradigan avtomobillar tabiatga jiddiy zarar yetkazadi.

Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar nihoyasiga yetish xavfi bor. Neft, gaz, toza suv — bu boyliklarni me'yorida ortiqcha isrof qilsak atrof muhitning ifloslanishiga sabab bo'ladi. Ba'zi odamlar neftni keraklicha ishlatib bo'lgach, uning qoldiqlarini dengizlarga oqizib yuborishmoqda, bu tabiat uchun va suvdagi jonzoqlar uchun jiddiy zarar keltiradi. Neft dengizga quyilganda, dengiz yuzasini to'liq qoplab oladi va kislorod yetishmasligi sababli ko'plab baliqlar nobud bo'lib ketmoqda. Neft baliq jabralariga yopishib qoladi, neftdan ajralib chiqqan zararli moddalar dengiz jonzoqlarining ichki organlar tizimlariga jiddiy zarar yetkazib, ko'payishni ham sekinlashtiradi. Baliqlarning lichinkalarini va yangi tuxumdan chiqqan baliqlarni to'liq yo'q qilishi mumkin. Natijada atrof muhit uchun juda muhim bo'lgan dengiz jonzoqlarning ko'p qismini qirib yubormoqda.

Bundan tashqari, zavod va fabrikalardan chiqayotgan zararli tutunlar ham chiqindilar ekologiyani zararlashga katta hissa qo'shyapti. Zavodlardan chiqayotgan tutunlar aslida nimalardan chiqadi? Ular rezina, metal va boshqa materiallarni eritish va yoqishdan chiqadigan CO₂ (karbonat anhidrid) gazi bo'lib, u ochiq havoga chiqqanda ozon qatlamigacha yetib boradi va ozon qatlamini yemiradi, hamda havoda zararli moddalar ortadi. Chiqindilarni aholiga yaqin joylarga to'kishdan aholiga noqulayliklar tug'diradi va havoni zararlaysdi.

Toshkent shahrini misol qilib oladigan bo'lsak, havosi juda iflos, tumanli. Bir qancha ma'lumotlarga qaraganda, so'ngi kunlarda Toshkent havosi dunyo retingi bo'yicha birinchi o'rinni egalladi. Buning sababi yog'ingarchilik kamayib ketishi va shahar atrofida ayrim noqonuniy fabrika va smet zavodlarining faoliyat olib borishidir.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, ekologiyani toza saqlash uchun barcha insonlar birgalikda atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash lozim. Bundan tashqari, zavod va fabrikalarni aholi yashaydigan joylardan uzoqlashtirish kerak, sayyoramizni asrash har birimizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. To‘xtayev A.S. Ekologiya. — Toshkent : O‘qituvchi, 2016.
2. Raximov B.R. Atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari. — Toshkent : Fan va texnologiya, 2018.
3. Islomov M., Qodirov A. Atmosfera havosini muhofaza qilish. — Toshkent : Universitet, 2019.
4. Odilov S.X. Global ekologik muammolar va ularning yechimlari. — Toshkent : Iqtisodiyot, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari. — URL: <https://eco.gov.uz> (murojaat sanasi: 20.01.2026).
6. World Health Organization (WHO). Air pollution and health. — URL: <https://www.who.int> (murojaat sanasi: 20.01.2026).
7. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environment Outlook. — URL: <https://www.unep.org> (murojaat sanasi: 20.01.2026).